



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 17-fevral, № 32 (9203)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



BARCHA ISLOHOTLAR NATIJALARI, AVVALO, ODAMLAR HAYOTIDA O'Z AKSINI TOPADI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga eng ustuvor islohotlar dasturlari hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2026-yilda amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi loyihalari yuzasidan axborot berildi.

Qayd etilganidek, mazkur loyihalar ilg'or xorijiy tajribaga tayanib mutlaqo yangi yondashuv asosida ishlab chiqildi. Ularda Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan joriy yildagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va maqsadli ko'rsatkichlari hamda ularni amalga oshirishning aniq mexanizmlari belgilanmoqda.

Islohotlar dasturlari va Davlat dasturining bir-biridan farqli jihatlariga alohida to'xtalindi.

Islohotlar dasturlari davlatimiz rahbarining xalqimiz va Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan tashabbuslari va 2026-yil uchun eng ustuvor islohotlarni qamrab olgan.

Bular mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish va ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish, iqtisodiyotni texnologik

va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish hamda ichki bozorda talabni rag'batlantirish, kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish, ekologik muvozanatni ta'minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish hamda davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish, jamiyatda birdamlikni ta'minlash orqali uni yuksaltirish.

Bu dasturlarda “hujjat ishlab chiqish”dan “natijaga erishish” tamoyiliga o'tilmoqda. Har bir tashabbusni amalga oshirish mexanizmlari va yil yakuniga mo'ljallangan ijro natijalari bo'yicha KPI belgilangan. Dasturlar to'g'ridan-to'g'ri amal qilish mexanizmiga ega va ayrim tashabbuslar bo'yicha alohida hujjat qabul qilishni

talab etmaydi. Har bir islohotlar dasturining ijrosi uchun shaxsan javobgar bo'lgan mas'ul rahbar va muvofiqlashtiruvchi davlat tashkiloti belgilanmoqda.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida esa strategiyaning 2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkichlari ijrosi tashkil etiladi. Dastur bilan 337 ta banddan iborat amaliy chora-tadbirlar rejasini tasdiqlanmoqda. 2026-yilda sohalar kesimida eng muhim 59 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi va eng muhim strategik islohotlarni nazarda tutuvchi 12 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi.

Loyihalarni ishlab chiqishda jamoatchilik

fikrini hisobga olishga alohida e'tibor qaratilgani ta'kidlandi. Davlat dasturi keng jamoatchilik muhokamasida o'tkazilib, 23-yanvar – 1-fevral kunlari ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng targ'ib qilindi. Internetda loyiha bilan 5 milliondan ziyod foydalanuvchilar tanishib, 22 mingdan ziyod fikr-mulohaza va takliflar bildirildi.

Oliyog'ohlar va davlat idoralarida 50 dan ortiq muhokama tadbirlari o'tkazilib, 10 mingga yaqin talaba, professor-o'qituvchilar va davlat yozmatchilari ishtirok etdi. Xorijdagi vatandoshlar bilan ham alohida muloqotlar tashkil etilib, qator qo'shimcha tashabbuslar bildirildi.

(Davomi 2-betda).



O'ZBEKISTON FAZOGA SUN'IY YO'LDOSH VA BIRINCHI MILLIY KOSMONAVTINI UCHIRISHGA TAYYORLANMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev kosmosga sun'iy yo'ldosh uchirish hamda birinchi o'zbek fazogirini tayyorlash bo'yicha dastlabki ishlar taqdimoti bilan tanishdi.

Ta'kidlanganidek, bugun dunyoda raqobat yangi bosqichga chiqib, iqtisodiy qudrat tabiiy boyliklar bilan emas, intellektual salohiyat va texnologiyalar bilan o'chanmoqda. Kosmik texnologiyalar esa strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda kosmik ma'lumotlardan foydalanish boshlanganiga ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida sezilarli amaliy natijalarga erishildi. Davlat kosmik monitoringi ishga tushirilib, ushbu tizim proaktiv ravishda ishlayotgan.

Shu bilan birga, so'nggi besh yilda masofadan zondlash ma'lumotlariga talab 3 karra oshgani, hozirda kosmik monitoring bilan 10 dan ziyod davlat idoralari va barcha hokimliklar ishlayotgani ko'rsatib o'tildi.

– Eng muhimi, kosmik ma'lumotlar orqali biz “ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan” iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlab, ularni real daromad manbaiga aylantirayapmiz. Bu davlat resurslarini boshqarish mexanizmi va madaniyati o'zgarayotganidan dalolat, – dedi Prezidentimiz.

Shu bilan birga, kosmik sohada uzoq muddatli va barqaror milliy tizim – sun'iy yo'ldoshlarni boshqarish, ma'lumotlarni qayta ishlash va ularidan amaliyotda foydalanish infratuzilmasini shakllantirish muhim ekanini qayd etildi. Bundan maqsad mamlakatimiz suveren va obyekti ma'lumotlar manbaiga ega bo'lishidir.

Hozirgacha xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, bo'lajak sun'iy yo'ldoshning aniqligi va foydali yuklamasiga doir texnik talablar aniqlandi.

Taqdimotda ilmiy-texnologik salohiyatni oshirish doirasida birinchi milliy ilmiy sun'iy yo'ldoshni yaratish loyihasi ham ko'rib chiqildi. Loyiha doirasida mutaxassislarni tayyorlash va muhandislik jamoasini shakllantirish, 2028-yilda “Mirzo Ulug'bek” nomli “6U” formatdagi ilmiy sun'iy yo'ldoshni uchirish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan birinchi milliy kosmonavtni tayyorlash va uni fazoga uchirish strategik vazifa sifatida belgilangan.

– Bu shunchaki ramziy qadam emas, balki mamlakatimiz ilmiy salohiyati, yoshlarimiz orzusi va milliy g'ururimiz ifodasi bo'ladi, – dedi Prezidentimiz.

Milliy fazogirni qisqa muddatga – 10 – 14 kunlik parvozga tayyorlash taklif qilindi, bunday parvozlarni

tashkil etish bo'yicha xalqaro hamkorlik istiqbollari ko'rib chiqildi.

Kosmonavtni fazoga uchirish aniq ilmiy dasturni amalga oshirish bilan uzviy bog'langan bo'lishi zarurligi qayd etildi. Zero, bu yutuq mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshirishi bilan birga ilmiy salohiyatni rivojlantirish, yangi loyiha va texnologik tashabbuslarning paydo bo'lishi, yoshlarning fan va texnologiyalarga qiziqishi ortishiga xizmat qilishi kerak.

O'zbekiston kosmonavti fazoda bo'lishi davrida olib borilishi mumkin bo'lgan tadqiqotlar yo'nalishi sifatida tibbiyot va biologiya (masofaviy tashxis qo'yish, mahalliy dorivor ekstraktlar samaradorligini o'rganish), o'simliklar genetikasi (qurg'oqchilik va sho'rlanishga chidamli navlarni sinash, yopiq agrobiotizmlar modeli),

materialshunoslik (issiklikning o'tirish va boshqarish uchun materiallar, mato va tolalarni sinovdan o'tkazish) taklif qilindi.

2028-yilda Samarqand shahrida kosmos bo'yicha xalqaro kongress o'tkazish masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Unda AQSH, Yevropa mamlakatlari, Xitoy, Hindiston, Rossiya va boshqa davlatlarning yetakchi kosmik tashkilotlari ishtirok etishga qiziqish bildirgan.

Mas'ullarga ushbu xalqaro tadbirga yuksak saviyada tayyorgarlik ko'rish topshirildi.

Taqdimot yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev sun'iy yo'ldoshlar loyihalari va milliy fazogirni tayyorlash bo'yicha hisob-kitob hamda amaliy takliflarni puxta ishlab chiqish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI MUBORAK RAMAZON OYINI MUNOSIB TARZDA O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Keyingi yillarda mamlakatimizda inson qadri, huquq va manfaatlarini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, ehtiyojmand toifalarni ijtimoiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarimiz tufayli muqaddas islom dinining insonparvarlik mohiyati, o'zaro ahillik, saxovat va shukronalik g'oyalari o'zida mujassam etgan muborak Ramazon oyi xalqimiz qalbiga yanada yaqin va mo'tabar ayyomga aylanmoqda.

Ijtimoiy-ma'naviy hayotimizdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotgan Ramazon oyini munosib kutib olish va yuqori saviyada o'tkazish, diniy-ma'rifiy, madaniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug'lash maqsadida:

1. 2026-yilda muborak Ramazon oyining boshlanishi **19-fevral** kuniga to'g'ri kelishi haqidagi O'zbekiston musulmonlari idorasingin axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'milta, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, ijtimoiy himoya milliy agentligi, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash “Nuroni” jamg'armasi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda mamlakatimizda Ramazon oyini **milliy an'ana va qadriyatlariga mos tarzda** o'tkazishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

“**Ramazon – mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi**” degan ezgu g'oya asosida:

kam ta'minlangan, ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

mahallalarni o'zaro hurmat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish;

yer, suv, havo va tabiiy muhitni asrash, muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh va qabristonlarni obod etish;

Ramazon oyi bilan bog'liq tadbirlarni isrofgarchilikka yo'l qo'ymasdan, ixcham, mazmunli va tejamkorlik asosida o'tkazishga alohida e'tibor berilsin.

3. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon oyini o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q.Davletov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2026-yil 16-fevral

HAMKORLIK DASTURI DOIRASIDA ALOQALAR MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMT Aholishunoslik jamg'armasi – UNFPAning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Nigina Abboszoda bilan uchrashdi.

Muloqot

Muloqot davomida UNFPAning demografik siyosat, reproduktiv salomatlik va gender tenglik sohalarida olib borayotgan amaliy ko'magi hamda BMT tizimidagi ishonchli hamkor sifatidagi ahamiyatiga urg'u berildi.

Shuningdek, mamlakatimizda ilk bor o'tkazilayotgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirida jamg'arma tomonidan jalb qilingan xalqaro ekspertlar va ko'rsatilayotgan uslubiy yordamning muhimligi qayd etildi.

Tomonlar 2025-2026-yillarga

mo'ljallangan hamkorlik dasturi doirasida qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish, onlayn hamda gender zo'raonlikka qarshi kurashish, milliy tadqiqotlar o'tkazish va oilaga o'raltirilgan siyosatni rivojlantirish yo'nalishlarida aloqalarni yanada kengaytirishga tayyorligini bildirdi.

Uchrashuv yakunida strategik sheriklikni mustahkamlash hamda aholi turmush sifatini kuchaytirishga qaratilgan qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirishdan tomonlar manfaatdor ekanini ta'kidlandi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

DOLZARB QONUN LOYIHALARI MUHOKAMASI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyil palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Prezidentimiz raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ilgari surilgan muhim tashabbuslar haqida so'z yuritildi.

Ta'kidlanganidek, investitsiya loyihalari bilan ishlashda yangi yondashuv joriy etilishi bugungi zamonning o'tkir talabidir. Endilikda loyihalar nafaqat ishga tushirilishi, balki yuqori qo'shilgan qiymat yaratishi, tashqi bozorga chiqishi

va barqaror ish o'rinarini ta'minlashi asosiy mezon bo'ladi. Bu jarayon “Yagona milliy loyiha boshqaruvi” platformasi orqali uch yil davomida monitoring qilib boriladi.

Deputatlar eksport masalasiga strategik nuqtayi nazardan yondashish zarurligini ta'kidladi. Ichki bozor hisobidan yuqori o'sishga erishib bo'lmagligi, shu bois yangi mahsulotlar bilan Yevropa va AQSH kabi qimmat bozorlarga chiqish zarurligi qayd etildi.

Fraksiya a'zolari davlatimiz rahbari tashabbusini mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda muhim qadam sifatida qo'llab-quvvatladi.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN AMERIKA QO'SHMA SHTATLARIDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17 – 19-fevral kunlari Tinchlik kengashining dastlabki yig'ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo'ladi.

Kengashning birinchi sammiti AQSH Tinchlik institutida bo'lib o'tadi hamda G'azo sektorini tiklash va unga gumanitar yordam ko'rsatish, ushbu mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlanadi.

Tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida davlatimiz rahbari Amerikaning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari ishtirokidagi strategik loyihalar taqdimoti hamda iqtisodiy sohaga oid ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimida ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

Eslatib o'tamiz, Tinchlik kengashi AQSH Prezidenti Donald Tramp tashabbusi bilan tashkil etilgan. O'zbekiston joriy yil yanvar oyida Shveysariyaning Davos shahrida unga ta'sischi davlat sifatida qo'shildi.

O'ZA.

Tinchlik kengashining birinchi majlisi:

O'ZBEKISTON KONSTRUKTIV TASHABBUSLARNI ILGARI SURISHNI MAQSD QILGAN

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17 – 19-fevral kunlari AQSHga tashrif buyurib, muloqotni rivojlantirish hamda dolzarb global va mintaqaviy mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun ko'p tomonlama platforma sifatida tashkil qilingan yangi xalqaro tuzilma – Tinchlik kengashining birinchi majlisida ishtirok etadi.

Tashrif oldidan

2026-yil yanvar oyida Davosda bo'lib o'tgan Jahon iqtisodiy forumida Tinchlik kengashi ta'is shartnomasini imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Unda davlatlar, hukumatlar rahbarlari va qator ta'sischi mamlakatlar vakillari qatnashdi.

Yil boshida ilgari surilgan mazkur tashabbus ko'plab davlatlar, jumladan, Kengash ta'sischi qatoriga kirgan O'zbekiston tomonidan qo'llab-quvvatlanib, tinch diplomatiya, hamkorlik va xalqaro barqarorlikni saqlash uchun mas'uliyat tamoyillariga sodiqligini tasdiqladi.

Tinchlik kengashining tashkil etilishi xalqaro hamjamiyatning mojarolarning oldini olish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni shakllantirish va hozirgi zamon, avvalo, Yaqin Sharq mintaqasidagi eng o'tkir inqirozlaning siyosiy-diplomatik yechimlarini izlash borasidagi sa'y-harakatlarining mantiqiy davomi bo'ladi.

O'zbekistonning ushbu

tuzilmani ta'sis qilishdagi ishtiroki rasmiy Toshkentning muloqot, xalqaro huquqni hurmat qilish hamda kuch ssenariylariga yo'l qo'ymaslik g'oyalari ilgari surishga qaratilgan izchil tashqi siyosatini aks ettiradi. Davlatimizning BMT rezolyutsiyalariga muvofiq adolatli va barqaror tinchlik yechimini qo'llab-quvvatlashga asoslangan Falastin masalasi bo'yicha pozitsiyasi ushbu tashabbus doirasida qo'shimcha xalqaro ruh oldi.

Davlatimiz rahbarining Tinchlik kengashining birinchi yig'ilishida ishtirok etishi so'nggi oylarda kuzatilayotgan O'zbekiston – AQSH siyosiy muloqotining faollashuviga hamohangdir. O'tgan yarim yil ichida rasmiy Toshkent va Vashington o'rtasidagi oliy darajadagi muloqotlar sezilarli darajada faollashdi. Bu ikki tomonlama munosabatlarining sifat jihatdan yangi bosqichdan dalolat beradi.



3



2

Tanlov

TENG IMKONİYATLAR VA ADOLAT TAMOIYILI

Mamlakatimizda jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, har jihatdan ibratli xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni keng targ'ib qilish va jamoatchilikka yetkazish maqsadida "Gender tenglik faoli" milliy tanlovi o'tkazib kelinmoqda.

Har yil yakuni bo'yicha gender tenglikni ta'minlash borasida yuqori natijalarga erishgan, bu borada jamiyat rivoji uchun tashabbus ko'rsatayotgan, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, o'z sohasiga tegishli yo'nalishlarda dolzarb vazifalarni amalga oshirayotgan vazirliklar, idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari ushbu tanlovda qatnashadi hamda xizmatlari e'tirof etilib, taqdirlanadi.

Oliy Majlis Senatida "Gender tenglik faoli" milliy tanlovining respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirni kirish so'zi bilan ochgan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva tanlovning asosiy maqsadi tashkilotlarda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan samarali siyosatni yo'lga qo'yish, ilg'or tajribalarni aniqlash va keng ommalashtirish, shuningdek, xotin-qizlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanini qayd etdi.

Ta'kidlanganidek, Prezidentimiz rahbarligida keyingi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, ularning davlat boshqaruvi hamda jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalar yangi tahrirdagi Konstitutsiyada, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasida mustahkamlab qo'yilgan.

Mamlakatimizda xotin-qizlar masalalarining huquqiy asosi sifatida 110 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, yaxlit institutsional tizim shakllantirilgan. Gender tenglik siyosatiga nafaqat ijtimoiy adolat tamoyili, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaramolqoq.

Xususan, parlamentlar quyi palatalarida xotin-qizlar ulushi bo'yicha O'zbekiston jahonda 15-o'rinni egallaydi. Jahon banki indeksida mamlakatimiz gender tenglik borasida eng tez rivojlanayotgan besh davlat qatorida qayd etilgan bo'lsa, Gender tenglik va boshqaruv indeksida 103-o'rindan 52-o'ringa ko'tarildi.

Ushbu tanlovning 2025-yil yakunlariga bag'ishlangan sarhisobiga to'xtalsak, tanlov komissiyasi xulosasi bo'yicha 7 ta nominatsiyada g'oliblar aniqlandi. Unga ko'ra, "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol respublika tashkiloti" yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Markaziy bank, "Navoiy konmetallurgiya kombinati" AJ, "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy tashkilot" nominatsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti g'olib deb topildi.

Shuningdek, "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tuman (shahar) tashkiloti" sifatida Surxondaryo viloyatining Uzun tumani Axborot-viloyat boshqaruvi markazi olingan bo'lsa, "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hokimlik" nominatsiyasi Farg'ona shahar hokimligi va Guliston tumani hokimligiga berildi.

Mazkur tanlovda "Mehrimiz sizga" ayollar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy huquqiy qo'llab-quvvatlash markazi hamda "MILLENNIUM" nogironligi bor yoshlarning ijtimoiy-huquqiy tiklanish markazi "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol nodavlat notijorat tashkiloti" yo'nalishida, "MIRZO BOSHI" oilaviy korxonasi va "Safia" qandolat uyi "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tadbirkorlik subyekti" yo'nalishida sovirdorlar safidan joy oldi.

"Gender tenglikni ta'minlashda eng faol ommaviy axborot vositasi" deb O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "O'zbekiston 24" teleradiokanali va "Mahalla" gazetasi e'tirof etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi vakillariga BMT Taraqqiyot dasturining nufuzli mukofoti – "Gender tenglik bo'yicha kumush nishoni" (Gender Equality Seal) tantanali ravishda topshirildi. Ahamiyatlisi, mazkur natijaga O'zbekiston MDH va Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib erishdi.

Bojxonachilarning ushbu yutug'i xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholaniib, mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan tizimli islohotlarning hayotiy samarasi sifatida e'tirof etilmoqda. Dastur doirasida Bojxona qo'mitasida ichki tartib-qoidalar va kadrlar siyosati takomillashtirilib, institutsional islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, ayol xodimlar soni ikki barobar, rahbarlik lavozimlari uchun xaziraga kiritilgan ayollar soni 3 baravar ko'paygan.

Qayd etilganidek, g'olib tashkilotlarda xodimlarning o'rta 30 – 50 foizini ayollar tashkil etadi, 60 nafar ayol rahbarlik lavozimida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 10 mingdan ziyod xotin-qiz xodimlar kasbiy salohiyatini oshirish kurslariga jalb etilib, 13 mingdan ortiq ayollarni qo'llab-quvvatlash uchun 2,1 trln. so'm mablag' ajratilgan.

G'olib tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'nga yaqin loyihalar amalga oshirilgani qayd etildi. Ayniqsa, bu yo'nalishda nodavlat notijorat tashkilotlari faolligi alohida e'tirof etildi.

Kelgusida tanlov doirasida mahallalar ishtirokini yanada kengaytirish va "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol mahalla" nominatsiyasini joriy etish rejalashtirilmoqda.

Hamroqul QARSHIYEV
("Xalq so'zi").

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Tahlillar natijasida konstruktiv deb topilgan 1000 ga yaqin takliflar saralab olinib, Davlat dasturi loyihasiga kiritildi.

Jumladan, ayollar va bolalarga nisbatan zo'rvonlik uchun jazoni kuchaytirish, pedofiiliya uchun umrbd ozodlikdan mahrum etish jazosini joriy etish, ipoteka va elektromobil xaridi uchun kredit mexanizmlarini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 30 foizga yetkazish, korrupsiyaga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda xalq vakillari hay'ati ishtirokini yo'lga qo'yish kabi tashabbuslar qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, mahalla mablag'lari sarfi bo'yicha ochiq hisobdorlikni kuchaytirish, mahallalarda ichki yo'llar, piyodalar va velayo'klarni tashkil etish, biznes-

inkubatorlar yaratish, sanoat zonalarida huzurida kasbiy qayta tayyorlash markazlari ochish, daraxt kesish uchun javobgarlikni qat'iyashtirish, energiya samaradorligi bo'yicha KPI joriy etish, utilitatsiya va qayta ishlash zanjirini yo'lga qo'yish kabi takliflar qiziqarli deb topildi.

Bundan tashqari, AQSH, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Kanada, Janubiy Koreya, Yaponiya, Shvetsiya, Portugaliya va Qozog'istonda vatandoshlar ishtirokida muhokamalar tashkil etilib, 60 ga yaqin qo'shimcha takliflar olindi.

Xorijdagi vatandoshlar nodavlat maktablar faoliyatini rivojlantirish uchun aniq, barqaror va shaffof litsenziyalash hamda nazorat mexanizmlarini joriy etish, amaliyot jarayonida o'quvchilarni yo'naltiruvchi korxona mutaxassislari uchun rag'batlantirish va mas'uliyat tizimini tatbiq qilish, bachadon bo'yni va ko'krak bezi saratoni bo'yicha xavf

guruhlarini aniq belgilaydigan yagona raqamli skrining tizimini joriy etish, imtiyozli kreditlarni ajratishda "natijaga bog'langan imtiyoz" (performance-based subsidy) modelini, eksport qiluvchi korxonalar uchun esa "Export-as-a-service" modelini joriy qilish, ya'ni logistika, bojxona, sertifikatlash, marketing va to'lov masalalarini yagona operator orqali kompleks xizmat sifatida taqdim etish, advokatlar uchun elektron navbat olish jarayoni bo'yicha qo'llanma va videoyo'riqnomalar tayyorlash kabi takliflarni bildirgan.


Dasturlar ijrosini moliyalashtirishga jami 250,5 trillion so'm ajratilishi va 50,4 milliard dollar mablag' jalb qilinishi ko'zda tutilgan.

Davlat dasturi ijrosi bo'yicha Adliya vazirligi va Hisob palatasi doimiy monitoring olib boradi, Vazirlar Mahkamasi har chorakda ijroni muhokama qiladi, har yarim yilda Oliy

Munosabat

INVESTITSIYA — HAM ISHONCH, HAM MAS'ULIYAT

Bugun global iqtisodiyotda investitsiya jalb qilishning o'zi yetarli ko'rsatkich emas. Asosiy savol shunday: ushbu sarmoya qanchalik qo'shilgan qiymat yaratdi, qancha ish o'ri ni ochdi va eksport hajmiga qanday ta'sir qildi? Demak, raqamlar ortida real iqtisodiy samara turmasa, investitsiya statistik ko'rsatkichga aylanib qolishi mumkin.



Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

Prezidentimiz raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida aynan shu masala – investitsiyalarning samaradorligi, ularning eksportbop va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qilishi qat'iy belgilab berildi. Bu yil 50 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilish rejasini qo'yilgan katta ishonch va ulkan mas'uliyat demakdir. Ammo selektor muhokamasi shunchaki hajm emas, balki sifat ustuvor bo'lishi shartligini yana bir bor ko'rsatdi.

So'nggi misollar shuni anglatadiki, ayrim hududlarda investitsiya loyihalari bozor tahlilisiz taklif qilinmoqda. Uchqo'rg'onida kalava ip zavodi qurish rejasini taklif etilgan holda Namanganda allaqachon 24 ta shunday korxona ishlamoqda va ularning quvvati ichki xomashyo hajmidan ham yuqori. Yoki Ohangaronda bazalt plitalari ishlab chiqarish rejasini mavjud

bo'lsa-da, yurtimizdagi 12 ta korxonaning yarmi bozor topa olmay to'xtab qolgan.

Bu holat investitsiyani iqtisodiy ehtiyoj va eksport salohiyati bilan bog'lamaslik qanday oqibatlarga olib kelishini ko'rsatadi. Eng tashvishlisi, ayrim hududlarda 10 dollar investitsiya atigi 1 dollar qo'shilgan qiymat berayotgani qayd etildi. Demak, masala sarmoya hajmida emas, uning iqtisodiy qaytimidadir.

Yig'ilishda 2026-yilgi investitsiya dasturiga kiritiladigan har bir loyihaning bozori, eksport yo'nalishi, qo'shilgan qiymati va ish o'limi yaratish salohiyati chuqur tahlil qilinishi shartligi belgilab berildi. Bu yondashuv investitsiya siyosatini tubdan o'zgartiradi. Endi "loyihani ishga tushirish" emas, balki "loyihaning barqaror ishlashi va natija berishi" asosiy mezoniga aylanmoqda.

Shu maqsadda "Yagona milliy loyiha boshqaruvi" platformasini joriy etish tashabbusi ilgari surildi. Har bir loyiha ishga tushgandan keyin uch yil



davomida monitoring qilinishi mas'uliyatni kuchaytiradi va sun'iy ravishda ko'rsatkich o'tirtirish amaliyotiga chek qo'yadi. Bu parlament nazorati nuqtayi nazaridan ham muhim qadamdir. Chunki davlat ishtirokidagi yoki imtiyozli resurslar jalb etilgan har bir loyiha xalq mablag'ining samarali ishlatilishi bilan chambarchas bog'liq.

Xalq vakili sifatida investitsiya loyihalarining ochiqchiligi, ular bo'yicha ma'lumotlarning shaffoqligi va natijadorlik mezonlarini qonun darajasida mustahkamlashni juda muhim deb hisoblaymiz. 377 ta strategik loyihaning 165 mlrd. dollarlik qiymati alohida nazoratga olinayotgani esa mamlakat iqtisodiyoti kelgusi yillarda aynan investitsiya siyosati orqali yangi sifat bosqichiga chiqishini anglatadi. Bu loyihalar yuqori qo'shilgan qiymat, eksportbop mahsulot va yuqori daromadli ish o'rinlarini ta'minlashi lozim.

Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

DOLZARB QONUN LOYIHALARI MUHOKAMASI

Yig'ilishda raqamli markirovkash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi obdan muhokama qilindi. Unda belgilanayotgan normalar masofaviy soliq tekshiruv jarayonlarini tezkor tashkil etish, soliq to'lovchi huzuriga bormasdan nazoratni amalga oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ortiqcha aralashuvlarning oldini olishga qaratilgan.

– Fraksiyamiz yig'ilishida qonun loyihasini qizg'in muhokama etib, partiyamiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni yanada takomillashtirish bo'yicha qator takliflar berdik, – dedi fraksiya a'zosi Otabek Musurmonov. – Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi soliq nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga, raqamli instrumentlar orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va iqtisodiyotda ochiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ma'qullandi.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida raqamli markirovkash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda aholini sifatli iste'mol mahsulotlari bilan



aylanmasini kuzatib borish tizimini yanada kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lishiga qaramay ayrim shaxslar tomonidan aholiga sifatli va yoki qalbakli mahsulotlarni realizatsiya qilish holatlari kuzatilmoqda. Bunday holatlar nafaqat insofli soliq to'lovchilar huquqiga, balki insonlar salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Fraksiya yig'ilishida muhokama etilgan qonun loyihasi raqamli markirovkash qoidalarini chetlab o'tish orqali qonunni muhokama aylanasiga qarshi kurashish, sifatli yoki qalbakli tovarlarning bozorga kirib kelishini barvaqt aniqlash va cheklashga qaratilgan. Bu esa, ta'kidlab o'tilganidek, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, insofli soliq to'lovchilar uchun sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga muhim huquqiy asos bo'ladi.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov ushbu qonun loyihasiga munosabat bildirib, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga kirishi uchun aynan markirovkash tizimini takomillashtirish juda muhim ekanini, endilikda ushbu qonun loyihasi bilan bu boradagi bo'shliq to'ldirilayotganini ta'kidladi.

Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi. "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab davlatimiz rahbarining Sudyalari oliy kengashi raisining axboroti bilan tanishuvida ilgari surilgan tashabbuslar haqida so'z yuritildi.

Deputatlar sudyalalar mustaqilligi va daxlsizligini ta'minlash borasida

Sudyalar intizomiy hay'atini tuzish orqali sudyaga nisbatan intizomiy jazo qo'llashning xolis tartibini yaratish taklifini alohida e'tirof etdi.

Shuningdek, sud hokimiyati mustaqilligi, sudyalari daxlsizligini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirishga to'siq bo'layotgan omillarni bartaraf qilish yo'nalishidagi tizimli chora-tadbirlarni izchil davom ettirish yuzasidan berilgan qator tavsiyalardan kelib chiqib, fraksiya oldida turgan muhim vazifalar belgilab olindi.

Shundan so'ng deputatlar "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan mahalliy Kengashlar sessiyalari kun tartibi loyihasini shakllantirish, doimiy komissiyalar ishini muvofiqlashtirish va boshqa tashkiliy vakolatlarga ega Kengash Rayosati institutini joriy etish hamda uning ish faoliyati tartibini belgilash ko'zda tutilyapti.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasining dolzarbligi, ahamiyatini qayd etgan holda ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar berdi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi ma'qullandi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan – "Mahalliy

davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Tashabbuskorlar fikricha, qonun loyihasi bilan xalq deputatlari mahalliy Kengashi va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Yig'ilishda belgilanayotgan normalar atroflicha muhokama qilindi. Fraksiya a'zolari ushbu hujjatning ahamiyati yuzasidan o'z fikrlarini bildirdi.

Fraksiya a'zosi Odiljon Iminovning fikricha, kiritilayotgan o'zgartirishlar nafaqat xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini samarali tashkil etishga, balki aholining qaror qabul

qilish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirishga hissa ko'rsadi. Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda kun tartibidagi masalalar atroflicha ko'rib chiqildi va tegishli qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi



fraksiyasi yig'ilishida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining roli va ta'sirchanligini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining ishtirokini kengaytirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mahalliy Kengashlar faoliyati hajmining ortishi, sessiyalarda ko'rib chiqilayotgan masalalar ko'lamining

kengayishi boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirishni talab etayotgani ta'kidlandi.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasining mazmun-mohiyatiga atroflicha to'xtalib, unda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyatini yanada samarali tashkil etish, vakillik nazoratining yangi shakllarini joriy qilishga qaratilgan normalar belgilanayotganini bildirishdi.

Yig'ilishda Kengashlarda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining ayrim muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan axborotlarini eshitish tartibini qo'llash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu tartib mahalliy darajada ochiqlik va hisobdorlikni yanada ta'minlash, aholini tashvishga solayotgan masalalar yuzasidan aniq va asosli axborot berish tizimini shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

– Muhokamalar chog'ida qonun loyihasidagi ayrim normalarni takomillashtirish bo'yicha qator taklif va tavsiyalarni qayd etildi, – deydi fraksiya a'zosi Gulchehra Tojiboyeva. – Ushbu hujjatning qabul qilinishi mahalliy vakillik organlarining nufuzini yanada ko'tarish, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ustidan Kengashlar va deputatlar nazoratini kuchaytirish, xalq bilan muloqot samaradorligini oshirishga yolg'uni o'chadi.

Qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".

«QIZIL» TOIFADAGI MAHALLALAR SONI KAMAYMOQDA

Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida huquq-tartibot idoralari faoliyati tanqidiy-tahliliy ruhda ko'rib chiqilib, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida qator yangi vazifalar belgilab berildi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bugungi davr shiddati bu boradagi ishlarni mutlaqo yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda.

Bizning intervyu

Shu o'rinda savol tug'iladi: jamoat xavfsizligini va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha prokuratura organlari tomonidan qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Endilikda hududlarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ish faoliyati qanday yo'lga qo'yiladi?

Muxbirimiz ana shu va boshqa dolzarb savollarga javob olish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, 3-darajali davlat adliya maslahatchisi Shohrux AMINOVning fikr-mulohazalarini yozib oldi.

Yig'ilishda huquq-tartibot hamda nazorat organlari faoliyatiga tanqidiy baho berilib, uyushgan jinoyatchilik, narkojinoyatlar, kiberjinoyatchilik va "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashish bo'yicha yangi tizim, birinchi navbatda, Toshkent shahrida boshlanib, xavfsiz muhit yaratish bo'yicha "poytaxt namunasi" joriy etilishi ma'lum qilindi.

Eng muhimi, bundan buyon jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda profilaktika ishlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilib, uning sodir etilishiga olib kelayotgan ijtimoiy sabab hamda omillarni bartaraf qilish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Mazkur ishlarni amalga oshirishda barcha davlat idoralari, jamoat tashkilotlari va

mahalla institutlarining hamkorligi g'oyatda zarur.

Shundan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi organlari mazkur topshiriq hamda vazifalar mazmun-mohiyatini anglagan holda asosiy e'tiborni hamkorlik va samaradorlikka qaratmoqda. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa mutasaddi idora-tashkilotlar bilan birgalikda amaliy ishlar jadallik bilan boshlab yuborildi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi tomonidan 17 ta tumandagi 452 ta mahallada kriminogen vaziyat tahlil etilib, jinoyatchilik hamda huquqbuzarlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan hududlarga mas'ullar birlashtirildi va ularning aniq ish rejasi ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, Respublika idoralararo muvofiqlashtirish shtabi tomonidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilib, unda jinoyatlarning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyat samaradorligi, bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligi masalalari muhokama etildi. Yig'ilish qarori bilan o'tgan yilda respublika hududida qayd qilingan 19 turdagi jinoyat hamda ular yuzasidan kelib tushgan xabarlar va huquqbuzarliklar tahlili bo'yicha ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi. Ularga jinoyat hamda hodisalarning sabablari va omillarini o'rganib, bartaraf etishning yangicha mexanizmini ishlab chiqish vazifasi yuklatilishi bilan birga, ijrosi nazoratga olindi.

Aytish lozimki, o'tgan yili Qoraqalpog'iston Respublikasida jinoyatlarning 53,3 foizi axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan bo'lib, kelgusida bunday jinoyatlarni fosh qilish va ularga qarshi kurashish borasida tizimli ishlar olib borilayпти.

Albatta, prokuratura tomonidan hududagi mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish hamda



huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish yuzasidan qator ijobiy natijalar ham qo'lga kiritilayotganini aytib o'tish joiz.

Misol uchun, jinoyatlarning asl sabablarini bartaraf etishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar dasturi doirasida fuqarolarga firibgarlikdan himoyalaniş usullarini tushuntirish, huquqi maslahat va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida "maslahat

“Yuqorida ta’kidlab o’tilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida hududda undan oldingi yildagiga nisbatan turli jinoyatlar, xususan, qotillik 45,5 foiz, bosqinchilik – 83,3, nomusga tegish – 27, qasddan badanga og’ir shikast yetkazish – 14,3, talonchilik 22 foiz kamayishiga erishildi. Shu bilan birga, yoshlar va ayollar jinoyatchiligi ham ancha kamayganini ko’rish mumkin.

markazi”, ya’ni “Call-markaz” tashkil etildi, “1431” qisqa raqami ishga tushirildi. Jamoatchilik asosida Ichki ishlar va Adliya vazirliklari, Markaziy bank, Kadastr palatasi hamda prokuratura xodimlaridan iborat ishchi guruh tuzilib, mazkur markazga birlashtirildi. Joriy yilda ham bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda.

Hisobot davrida ushbu markazning bevosita amaliy yordami bilan 1 500 nafardan ortiq fuqarolar jinoyatdan aziyat chekishining oldi olingan bo'lsa, firibgarlarning aldov usullaridan himoyalaniş yo'llarini o'z ichiga olgan holda ishlab chiqilgan yo'riqnoma 2 milliondan ziyod bank mijozlariga tarqatildi.

Shuningdek, muqaddam sudlangan, yakka-yolg'iz yashovchi jinoyatga moyil, spirtli ichimlikka ruju qo'ygan 5 400 dan ortiq fuqarolarning alohida ro'yxati shakllantirilib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish maqsadida “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi. Shu asosda olib borilgan individual profilaktik chora-tadbirlar davomida 288 nafar shaxsning bandligi ta'minlanib, yana 158 nafariga davolanishi uchun amaliy yordamlar berildi. 70 nafarining esa ijtimoiy muammolari hal etildi.

Bundan tashqari, giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq 209 ta jinoyat aniqlangan bo'lib, ularning 146 tasi tezkor tadbirda, 63 tasi tergov yo'li bilan qo'shimcha holat aniqlangan.

Tahlillarga ko'ra, narkotik moddalarning noqonuniy muomalasi

iste'mol va qaramlik oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, psixotrop hamda kuchli ta'sir etuvchi moddalarning aksariyati o'zdiruvchi moddalar sifatida yashirin targ'ib qilingan. Bugungi kunda hududda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq holatlarning oldini olish, ularning kirib kelishiga

Yuqorida qayd etilganidek, endi prokuratura xodimlari yangicha ish tartibida faoliyat yuritadi. Bunda, albatta, mahalla va ovullar osoyishtaligi, jamoat xavfsizligi, fuqarolar huquq-manfaatlari himoyasi hamda qonun ustuvorligini ta'minlash kabi jamiyat taraqqiyotiga daxldor masalalarga e'tiborni yanada kuchaytiramiz. Bu, o'z navbatida, hududlarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim omil bo'ladi, xalqning esa qonun ustuvorligiga ishonchini yanada oshiradi.

Rahim SHERQULOV
("Xalq so'zi") yozib oldi.

YANGILIKLAR

xabarlar

TAFSILOTLAR

Mamlakat energotizimi uchun muhim loyiha

Nishon tumanida joylashgan Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasida umumiy quvvati 1065 megavatt, loyiha qiymati esa 944,87 mln. AQSH dollari bo'lgan yangi bug-gaz qurilmalari ishga tushirildi.



Mamlakatimiz energotizimida muhim ahamiyatga ega ushbu loyiha bir qator xorijiy va mahalliy moliya tashkilotlarining ko'magi hamda Ispaniya, Yaponiya, Turkiya davlatlarining yirik kompaniyalari pudratchiligida amalga oshirildi.

Bu bug-gaz qurilmalari orqali korxonada yiliga 8 mlrd. kVt-soat elektr energiya ishlab chiqariladi va yuqori tejamkor texnologiyalarni qo'llash hisobiga yiliga 300 mln. kub metr tabiiy gaz tejalisiga erishiladi, – deydi "Tolimarjon IES" AJ bosh direktori Jasur Pirmanov. – Qurilmalar Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va AQSH kabi yetakchi mamlakatlardan keltirilgan eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan bo'lib, to'liq avtomatlashtirilgan holda boshqariladi.

Yangi loyiha Samarqand va Buxoro viloyatlari iste'molchilarini, Qarshi magistral kanalidagi yettita nasos stansiyasini va yana ko'plab aholi punktlarini ishonchli elektr energiyasi bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

“IT-Park”: yoshlar uchun imkoniyat va imtiyoz

Qo'shtepa tumanida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, yoshlarning zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda istiqbolli g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "IT-Park" faoliyat boshladi.



– "IT-Park"da kuniga 100 nafar yigit-qiz axborot texnologiyalari va xorijiy tillar bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarini oshirib borish imkoniga ega bo'ladi, – deydi Qo'shtepa tumani hokimi maslahatchisi Saidakramxon Saidahmedov. – Shuningdek, ilk biznes g'oyalari, tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish uchun markaz qoshida kovorking zona – g'oyalarni hududi ham tashkil etildi.

Bu maskanda Qo'shtepa tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida yaqin istiqbolga mo'ljallangan loyihalash dasturlarini ishlab chiqishda yoshlarning g'oyalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan. O'z navbatida, xorijning ilg'or tajribalarini amaliyotga keng tatbiq etish uchun IT sohasida jahon bozorida nufuzli kompaniyalar bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

Poytaxtdan taklif etilgan tajribali mutaxassislar ishtirokida dasturlash, veb-sahifalar yaratish, dizayn grafikasi, robototexnika singari yo'nalishlarda muntazam mahorat darslari o'tkazib boriladi.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

“Elektron Reator” MCHJ



to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib borish yo'li bilan tashkillashtiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-sonli qaroriga asosan "O'zsanootqurilishbank" ATB balansida bo'lgan:

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, "Bahor" MFY, Toshkent shohko'chasi, 3-uyda joylashgan 11-xonadon sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan "www.e-rieltor.uz" sayti orqali tanishish mumkin.

Savdoga qo'yilgan mulkni bevosita joyiga chiqib ko'rish imkoniyati mavjud.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar "e-rieltor.uz" platformasi orqali ariza berishi kerak.

Call-markaz: +99855-517-22-20.

Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

Tinchlik kengashining birinchi majlisi:

O'ZBEKISTON KONSTRUKTIV TASHABBUSLARNI ILGARI SURISHNI MAQSAD QILGAN



Xususan, o'tgan yil sentabr oyida O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyasida qatnashish uchun Nyu-York shahriga tashrif buyurdi. Unda davlat rahbarlari va xalqaro tashkilotlar yetakchilari bilan uchrashuvlar o'tkazildi, global hamda mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Muloqot 2025-yil noyabr oyi boshida O'zbekiston Prezidentining Qo'shma Shtatlarga amaliy tashrifi chog'ida yanada rivojlandi. AQSH Prezidenti bilan muzokaralar, Amerika isteblishmenti, Kongressi va ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida strategik sheriklik, iqtisodiy hamkorlik, investitsiyaviy sheriklik va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga, jumladan, tomonlar Markaziy Osiyodagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishning samarali mexanizmi sifatida ko'rayotgan "C5+1" formatiga alohida e'tibor qaratildi.

Rasmiy Toshkent va Vashington o'rtasidagi aloqalar turli formatlar, jumladan, telefon orqali muloqotlar hamda tegishli idoralar o'rtasidagi hamkorlikda qo'llab-quvvatlandi. Iqtisodiy muloqotning kengayishi va biznes hamkorligi uchun yangi platformalarning yaratilishi ishonch mustahkamlanayotganining qo'shimcha dalili bo'ldi. Bu amaliy hamkorlikni chuqurlashtirishdan ikki tomon ham manfaatdorligini aks ettiradi. Qo'shma Shtatlarda O'zbekistonga vazmin va pragmatik tashqi siyosat olib borayotgan ishonchli, mas'uliyatli hamkor sifatida qarash tobora barqaror tus olmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning Tinchlik kengashidagi ishtiroki mamlakatning xalqaro nufuzi ortib borayotgani va uning global jarayonlardagi konstruktiv roli e'tirof etilayotgani ifodasi sifatida baholanmoqda. Rasmiy Vashington uchun bu – rasmiy Toshkent Yevroosiyo va undan tashqarida tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surishda muhim hamkor ekanining tasdiqi bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy muloqot faollashgani fonida O'zbekiston – AQSH hamkorligi muhim yo'nalishlarda kengayib bormoqda. Gap mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi sheriklik, O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, savdo va investitsiyalarni rivojlantirish, gumanitar hamda ta'lim aloqalarini chuqurlashtirish haqida bormoqda. Energetika, raqamlashtirish, infratuzilma va kadrlar tayyorlash borasidagi qo'shma loyihalar uzoq muddatli sheriklik uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Shunday qilib O'zbekiston Prezidentining Tinchlik kengashining bo'lajak birinchi yig'ilishida ishtirok etishi nafaqat mamlakatning xalqaro muloqot yangi arxitekturasini shakllantirishdagi faol rolini ta'kidlaydi, balki O'zbekiston – AQSH munosabatlarining ijobiy dinamikasini to'ldiradi. AQSHga ushbu tashrif, shubhasiz, Toshkent va Vashington o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni har ikki tomon manfaatlariga, mintaqada, umuman, dunyoda tinchlik-barqarorlikni mustahkamlash vazifalariga javob beradigan strategik darajaga olib chiqishga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA.



– O'n bir yildirki fermerman, bobom yaratgan bog'ni obod qilib, kam bo'lganim yo'q. Nokamtarlik bo'lmasin, Jahongir Sunnatov deysisha nafaqat Zarkent, balki Parkent tumanida ham ko'pchilik taniydi. Bu mehnatim ortidan, albatta. 24 gektar tokzor, 10 gektar gilos, 20 gektardan ortiq yaylovga yarasha chorva – bu katta boylik. O'tgan yili 76 tonna uzum sotdik. Yangi yil bayrami arafasida 100 tonnalik meva saqlaydigan omborda 23 tonna sara uzum bor edi, bir kundayoq sotildi. “Aka, bu uzumlarni chetga olib ketaman, yo'lda aynib qolmaydimi?” so'radi xaridor. “Aslo, ilgari ham Rossiyaga olib ketishgan. Nasib etsa, siz ham, biz ham baraka topamiz”, dedim ishonch bilan. Qaysi kuni gaplashsam, kayfiyati ko'tarinki: mijozlari mahsulotdan mamnun bo'libdi.

Mulkdor va davr

Uzumning pulini darrov meva saqlaydigan omborni kengaytirib, sig'imini 350 tonnalik qilishga, 54 gektar yerni boyitishga yo'naltirdik. Sopini o'zidan chiqarib xo'jaligimiz tarmog'ini kengaytirsak, daromad yanada oshadi! Albatta, o'zim bosh bo'lgan "Zarkent Sunnat Qo'chqorov" fermer xo'jaligining 19 nafar ishchi-xodimini yangi yil bayrami munosabati bilan mukofotlash ham esdan chiqqani yo'q.

“Uzum navlari qanaga? Mayizboplar ham bormi?” so'raymiz Jahongir Sunnatovdan.

– Bobom “ishingda hamisha sifatga tayan, uzumning eng sara navlarini parvarish qil, ana shunda bog'bon sifatida hurmatlash oshadi, mahsulotingni ham qimmatga sotasan”, degandi. Shu sababli, amakilarim Abror va Anvar Qo'chqorovlar maslahati bilan uzumning "Toifi", "Rizamat ota", "Kishmish" navlaridan ekanimiz. Har tong dala'mizni bir aylanib kelish odatga aylangan. Ko'klamda esa halovatdan kechamiz, bog'da ish qaynaydi. Doimiy ishchilarimiz yoniga yana 20 ga yaqin mavsumiy ishlovchilar qo'shiladi...

Qo'limizning uzunligi, eksport hajmi yil sayin ortayotgani esa uzumni sovittikchil omborxonada saqlashning xosiyati. Chunki uzum yetilgan payt kilosi 10 ming so'm tursa, ikki-uch oy saqlasangiz, bu raqam karrasiga oshadi. Keyingi yillarda hatto mahsulot uchun oldindan pul to'lab qo'yadiganlar ko'paymoqda. Nasib etsa, shu yilning o'zida omborni kengaytirsak, mayiz tayyorlaydigan sex qursak, shuning o'zi turgan-bitgani daromad. Shu tariqa qishlog'imizdagi yana o'n nafar bola ishi bo'ladi.

Yana bir quvonchli jihat. Hademay,

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lsak, bozorimiz yanada kengayadi. Ayniqsa, Yevropa davlatlari bizda yetishtirilgan ne'matlarga juda intiq. Qolaversa, Prezidentimiz biz kabi fermerlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanib qolmay, mahsulotimizni chet elga chiqarish imkoniyatini karrasiga kengaytirmoqda. Mana, yaqinda elchilarga ham shu topshiriq berildi. Eh-he, bu kelgusida nechog'li katta foyda olib keladi, tasavvurga sig'dirish mushkul.

E'tibor bersangiz, shu paytgacha “eksport” deyilsa, Rossiya yoki Qozog'istonn o'ylaydigan tadbirkorlarimiz bugun Yevropani, okeanortini ko'zlaypti. Shuning o'ziyoq uzumni dollarga, yevroga sotaman deyshimizga asos beradi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida aytilgan ulug'vor vazifalar esa yurtimizdagi aksariyat kishilar qatori meni ham yangi rejalar sari ruhlantirdi. “Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini hozirgi 40 milliarddan 60 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olamiz”, dedi Prezidentimiz. Bu yangi texnologiyalarga tayanish, “aqilli” innovatsion loyihalar, xorijiy sarmoyalar, deganidir.

– To'g'ri aytasiz, bugun bog'dorchilikka ham, sayyohlikka ham e'tibor kuchaygan. Ilgari turli bahona bilan begona o't bosib yotadigan joylar ham tokzorga aylanyapti. Foydasi zo'rda, – deya suhbatga qo'shiladi “Zarkent” MFY raisi Shavkat Qo'chqorov. – Aslida, Parkentimizning ne'matlariga Amir Temur bobomizning ham mehri tushgan. O'tgan asrning oxirlarida esa usta bog'bon, tanti rahbar Tojiboy ota Rizayev nomi Zarkent mevalariyu uzumlarini Moskvada

1 2 3 4 5 6